ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«CHIG'ATOY GURUNGI» VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDAGI O'RNI

Baynazarov Zokir,
Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida kechgan uyg'onish jarayonlari til masalasini milliy taraqqiyotning markaziy o'rinlaridan biriga aylantirdi. Bu davrda jadid ma'rifatparvarlari tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millatning o'zligini saqlovchi, uning ma'naviy va siyosiy uyg'onishini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida tushundilar. Shu sababli alifboni isloh qilish, imloni tartibga solish, ilmiy islohatlarni belgilash kabi masalalar jadidlar faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi. Manbalarda ham bu holat alohida ta'kidlanib, «Chig'atoy gurungi»ning tilshunoslik faoliyati, sovetlarning til siyosati va umumadabiy til jarayonlari maxsus tadqiq etilganini ko'rsatadi. Bu davr faoliyati uzoq vaqt davomida yetarli darajada o'rganilmay keldi. Buning asosiy sababi sifatida jadid ziyolilarining qatag'on qilinishi, davr merosiga mafkuraviy nuqtayi nazardan baho berish, milliy o'zlikni anglash yo'lidagi har qanday harakatning «millatchilik» sifatida talqin qilinishi bilan bog'liqdir. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligida, xususan, til, yozuv va imlo islohatlari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ularni ilmiy meros sifatida o'rganish, «Chig'atoy gurungi» kabi tashkilotlar faoliyatini keng ko'lamda tadqiq qilish, ulardan qolgan ilmiy manbalarni samarali tadqiq etish bugungi kundagi yozuv va imlo masalalaridagi muhim ilmiy vazifani amalga oshirda qo'l keladi.

«Chig'atoy gurungi»ning vujudga kelishi – hayotiy ehtiyoj. Jadidlar nazarida til millatning ko'zgusi edi. Chunki XX yuzyillik boshlarida Turkiston xalqlari bir tuzumdan ikkinchi tuzum qo'liga o'tib, mustamlakachilik siyosiy qo'rg'onida yashayotgan, butun mustamlaka hududlarida bo'layotgani kabi islohat va yangilanishlarga hayotiy ehtiyoj sezayotgan davrda umr guzaronlik qilayotgan edi. Sovet hukumatining boshlang'ich – o'tish davrida kichik tirqishdan kelayotgan umid nuri, ozgina esayotgan hurriyat shabodasi islohatlarga undovchi avlodni – jadidlarni tarixiy maydonga chiqargan edi. Yillar davomida kichik davralarda aytib kelingan fikrlar butun bir millat taqdirini hal qilishga qodir harakatni yuzaga chiqargan edi. Aytish mumkinki, mustamlakachilar tomonidan tinimsiz bug'ilib kelinganayotgan bo'lsa-da, bo'g'iq ovoz bilan gapirayotganlar, millatning kelajak taqdirini o'ylayotganlar – jadidlar edi. Manbalarda bu fikr juda aniq ifodalanadi: milliy uyg'onish vaqtida ma'rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruh va ongni uyg'otishda tilga g'oyat katta ahamiyat berganlar. Chunki ular millatning harakatini tasdiqlovchi bebaho javohir – ona tili ekanligini chuqur anglagan edilar. Xalq jonli tilining ishlashini ro'yobga chiqarish va adabiy til me'yorlarini belgilash o'sha davr uchun eng muhim vazifalaridan biri edi[1]. Shu ma'noda «Chig'atoy gurungi»ning vujudga kelishi kutilmagan hodisa emas edi. U o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti oldida turgan murakkab savollarga javob sifatida yuzaga chiqdi. Bir tomondan, adabiy tilning tayanch me'yorlari hali to'la shakllanmagan, undan asosiy yozuv, imlo, istiloh va talaffuz kabi masalalarda bir xillik yo'q edi. Bu maqsadning o'ziyoq «Chig'atoy gurungi»ga til islohotlarini olib borish ilmiy-ma'rifiy muhit sifatida talqin etish imkonini beradi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz bera boshladi. Rossiya mustamlakachilik siyosati, xalqning siyosiy nazorat ostiga olinishi, iqtisodiy-ijtimoiy zaiflashishi, madaniy-ma'rifiy himoyaning yo'qligi Turkiston ziyolilarini jiddiy tashvishga soldi. Ruslashtirish siyosatining jadal amalga oshirilishi, rus-tuzem maktablarining ochilishi, eski ta'lim tizimi zamon talablariga javob bermasligi, xalq orasida savodxonlik darajasining pastligi, milliy til va adabiyot masalalarining yetarli darajada rivojlanmagani yangi ma'rifiy va madaniy jamiyatlarning ochilishiga sabab bo'ldi. Shu davrda o'lkaning jadid ziyolilari xalqni uyg'otish, uni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash zarurligini chuqur angladilar va harakatga kechdilar. Bu sa'y-harakatlarning natijasi yangi usul maktablari, xayriya jamiyatlari, nashriyotlar, gazeta va teatr truppalarining faoliyatida ya-

[1] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

qqol namoyon bo'ldi. «Shirkati Buxoroyi Sharif», «Tarbiyayi atfol», «Jamiyati xayriya», «Nashriyot», «Maktab», «Turon» kabi o'nlab tashkilotlar ana shu tarixiy zarurat natijasida maydonga keldi. Millatni uyg'otish uchun uning tarixiy xotirasini tiklash, adabiyot tilini yaxshilash, imlo va yozuvlarni tartibga solish, milliy adabiyotning nazariy asoslash zarur edi. Ana shunday sharoitda «Chig'atoy gurungi» kabi ilmiy-adabiy va ma'rifiy tashkilotning yuzaga chiqishiga omil bo'ldi. Bu milliy «Gurung»ning tashkil etilishi, eng avvalo, o'zbek xalqining madaniy o'zligini anglashi yo'lida ilk qadamlardan biri edi. Tashkilotning «Chig'atoy» deb atalishi ham bejiz emas edi. Bu nom Alisher Navoiy davri, Chig'atoy adabiyot tili, o'zbek mumtoz adabiyoti va tarixiy madaniy merosga ishora qilardi. Tashkilot a'zolari o'z faoliyatida o'tmishdagi adabiyot va madaniy yuksalish an'analarini qayta tiklash, xalqni o'z tarixidan saqlash, milliy g'urur va birlik tuyg'usini mustahkamlashga ishora edi. «Chig'atoy gurungi» Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan yaratilgan bo'lib, uning faol a'zolari orasida Cho'lpon, Botu, Elbek, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimiy, Mannon Ramz, Uyg'ur, Qayum Ramazon, G'ulom Zafariy kabi ko'plab taraqqiyparvarlar bor edi[1]. **«Chig'atoy gurungi» 1918-yilning oxirlarida tashkil qilingan va Fitrat rahbarligida ish olib borgan. Bu madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tashkilot 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. «Chig'atoy gurungi» madaniy merosimizni to'plash, o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o'zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug'ullangan**[2]. Tashkilot 1921-yilgacha faoliyat yuritdi. Til, yozuv va imlo masalalaridan tashqari, maorif ishlari – maktablarni tashkil etish, ularuchun zarur kitoblarni yozish va nashr qilish, madaniy-ma'rifiy dasturlar tayyorlash, xalq ijodiy namunalarini yozib olish, ularni tadqiq qilish va chop etish, qo'lyozmalarni topish va o'rganish kabi madaniy ishlarni amalga oshirishdi.

Tashkilot bor-yo'gi 3 yil faoliyat yuritadi. Tadqiqotlarda uning tugatilishi sanasi bilan bog'liq bahsli holatlar bor. Tilshunos T. Tog'ayevning bir necha manbalarga tayanib ma'lumot berishicha, 1918-yil tuzilib, 1919-yil rasman ish boshlagan «Chig'atoy gurungi» 1921-yil yopilgan va uning bajaradigan vazifasi Maorif komissarligi qoshida tuzilgan 3 kishilik komissiyaga yuklatilgan. 1921-yilning yanvar oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Til-imlo qurultoyida Cho'lpon «Chig'atoy gurungi» hamda «O'zbek RusTA» vakili sifatida ishtirok etgan. Ushbu anjuman o'lkadagi imlo bahslari bois Maorif komissarligi taklifi va «Chig'atoy gurungi»ning tashabbusi bilan chaqirilgan edi. «Chig'atoy gurungi», ayrim tadqiqotchilar ko'rsatib kelayotganlaridek, 1922-yilda emas, balki mana shu qurultoydan so'ng tugatilgan. Elbekning ma'lum qilishicha, qurultoy so'ngida Maorif komissari Shohid Ahmadiyevning taklifi bilan Maorif komissarligi huzurida uch kishidan iborat (Cho'lpon, Elbek, Vadud Mahmud) O'zbek bilim hay'ati tuziladi. 1921-yil 10-yanvardan ishga kirishgan bu bilim hay'ati «o'zbekning butun ilmiy ishlarini qaraguchi va qurultoy ishlarini amalga oshirguchi bo'lib qoladir». «Chig'atoy gurungi»ning ko'pgina yumushlari endi o'lka sho'ro tashkilotlari (Milliy ishlar va Maorif komissarliklari)ning ko'magida ish ko'ra boshlagan O'zbek bilim hay'atiga yuklatilgan edi. Har holda, bundan keyin Til va imlo masalasiga bag'ishlangan qurultoy yoki anjumanlarda (masalan, 1922-yilda Toshkentda va 1923-yilda Buxoroda), umuman, hech bir joyda «Chig'atoy gurungi» nomi harakatdagi jamiyat sifatida zikr qilinmaydi. Fitratning o'zi «Chig'atoy gurungi» 20-yillargacha davom qildi» deb ma'lumot beradi[3].

Tashkilotning yopilishiga bir necha bahslar va tortishuvlar sabab bo'lgan. Uning shiddat bilan kengayib, erkin faoliyat olib borishi, tabiiyki, mustamlakachilarga yoqmagan. Kichik bahona ham yetarli edi. Ammo, Fitrat va uning hamrohlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar boshqa tashkilotlar nomi ostida davom etdi.

«Chig'atoy gurungi» amalga oshirgan ishlar va islohatlar. O'zbek tili imlo masalalarini belgilashda Fitrat boshchiligidagi «Chig'atoy gurungi» a'zolarining xizmatlari beqiyos bo'ldi. I.Azimov o'z tadqiqotida yozishicha[4], «gurungchilar» o'z oldilariga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

– tilimizning tugal, yuksak, san'atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyligi arabiylikda emas, o'zidadir. Shuni turgizmak kerak;

– adabiyotimizni yuksaltmak uchun burung'i san'atkor shoirlarimizning o'lmag'an va o'lmas narsalarindan foydalanmoq ham taraqqiy qilg'an uluslar tomonidan orag'a solingan umumiy asoslarga erishmak kerakdur;

- tilimizning qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o'zidan olmoq kerak. Shuning uchun xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'an ertaklar, maqollar, laparlarni yig'ib tekshirmak lozim;

- adabiyot yozuchiliq bo'lg'ani uchun yozu(v) qoi-

[1] Açık F. Özbekistan'da 1909-1917 Yılları Arasında Faliyet Gösteren Turan Cemiyeti, Türk Yurdu, 2005 Cilt 25, Sayı 214.

[2] Tog'ayev, T. M. 2022. XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati / O'zbekiston: til va madaniyat 3: 6–23.

[3] Тоғаев Т. "Чиғатой гуруғи" фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | ISSUE 9. Orient.uz, 2022. -B.424-425.

[4] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

dalari, imloni ham tuzatmak kerak[1].

«Chig'atoy gurungi» madaniy merosimizni to'plash, o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o'zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug'ullangan[2].

«Chig'atoy gurungi» tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan eng muhim ishlardan biri ***yozuv, milliy alifbo va imlo*** islohoti bilan bog'liq faoliyatdir. «Gurungchilar» arab alifbosi o'zbek tilining milliy tovushlar tizimiga tabiatan mos emasligini qayd etib, uni isloh qilish zarurligini ilgari surdilar. Shu maqsadda tashkilot arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini milliy tilimizga moslashtirishga kirishdilar. Avvalo, ta'kidlash lozimki, arab yozuvidan qat'iy qoidasiz foydalanib kelingan edi. Bu holat turli chalkashliklarni, jumladan ta'lim olish, savod chiqarishda murakkabliklarni keltirib chiqarar edi. Bu alifbo o'zbek tilidagi tovushlarni, asosan, unlilarni ifodalash uchun yetarlicha imkoniyat bera olmasdi. «Chig'atoychilar», dastlab, ularni aniq ifodalash uchun maxsus belgilar joriy etishga harakat qilishdi va ayrim o'rinlarda foydalandilar. «Chig'atoy gurungi» «imlo to'dasi»ning o'qituvchilar uchun imlo qo'llanmasi bo'lgan «Bitim yo'llari» nomli bitikchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko'pchilik yosh ziyolilar, o'qituvchilar «Chig'atoy gurungi» imlosini yoqladilar va unga ergashdilar. Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o'z tarafdorlari bilan yangi imloga qarshi bo'ldilar[3]. «Gurung» tomonidan o'zbek tilidagi 6 ta unli tovush uchun maxsus belgilar taklif qilindi. Bundan tashqari, gurung arab harflarining to'rt shakldan ikki shaklga tushirilishini qo'llab-quvvatladi. 1920-yilgi o'qituvchilar qurultoyidagi qaror asosida harflar soni 150 dan 50 taga tushirildi. Keyinchalik esa faqat bosh harflarni qoldirib, harflar sonini 23 taga qisqartirish taklif qilindi. Bu nashriyot va matbaa ishlarida muhim qulaylik yaratardi. Manbalarda, jumladan prof. J.Eltazarov[4], I.Azimov[5] va boshqalarda, keltirilishicha, XIX yuzyil ikkinchi yarmida Ozarboyjonda arab yozuvini isloh qilish va turkiy tilga moslashtirish bo'yicha ko'p harakatlar bo'lgan, hatto, Eron va Usmoniylarga ham tavsiya etilgan. Ammo samara bermagan. Boshqa o'lkada bo'lgani kabi yurtimizda ham arab alifbosini isloh qilishga din ta'siridagi dunyoqarash to'sqinlik qilgan. Bundan tashqari, bu yozuvdan barcha turkiy xalqlar foydalanayotgani sababli «birlashtiruvchi kuch» sifatida ko'rilgan. 1921-yil qurultoyidagi Fitrat ma'ruzasi mavjud yozuv tizimidagi qoidasizlikni aniq ko'rsatib beradi: harakat va harf shakllarining chalkash, ular turkey tovushlarni aynan belgilay olmaydi, yozuvda tartibsizlik mavjud va, shuningdek, imlo «buzuq» holatda. Bu sabablarning barchasi sohada islohot zaruratini tug'dirgan. Yuqoridagi omillar «Chig'atoy gurungi»ning imlo masalasiga nazariy emas, balki amaliy jihatdan yondashganining ko'rinishidir.

«Chig'atoy gurungi» a'zolarining **singarmonizm**ga munosabati to'rt asosiy yo'nalishda namoyon bo'lgan. Birinchidan, barcha a'zolar o'zbek tilida singarmonizm mavjudligini e'tirof etdi. Ikkinchidan, asosiy munozara «temir qonun» va «istisnochilar» o'rtasida kechdi. Uchinchidan, o'zlashma qatlam so'zlariga singarmonizmni qo'llash yoki qo'llamaslik eng katta bahsni keltirib chiqardi. To'rtinchidan, «Gurung» a'zolari orasida ham bu ikkinchi guruh fikrlari bo'yicha turlicha qarashlari bo'lib, 1929-yil konferensiyasida Q.Ramazon taklifiga ko'ra murosali qaror qabul qilindi.

«Chig'atoy gurungi» a'zolarining bu masaladagi faoliyati singarmonizmni o'zbek adabiy tilining ilmiy asosi sifatida belgilash yo'lidagi harakatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, keyinchalik sovet hokimiyati tomonidan bu qonuniyat sun'iy ravishda inkor etildi. 1934-yil 9 unlilik 6 unlilikka tushirildi. Bu o'rinda «Chig'atoy gurungi» a'zolarining fikri inobatga olingan deyish mumkin. Chunki, Fitratning o'zi 6 unlilik tarafdori bo'lgan. Endi savol tug'iladi: Fitrat nega olti unli tavsiya qilgan, boshqa turkiy tillar kabi to'qqizta emas? Shu savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, bu davrda milliy tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan, o'zbek jadidchilik harakati Turkiya va Tataristonda paydo bo'lgan jadidchilikning bevosita ta'sirida shakllangan, tilshunoslik bo'yicha ilmiy qarashlarda aynan ularning roli kuchli bo'lgan. Bu haqda Sh.Bobomurodova shunday yozadi: «1895-1915-yillarda Tataristonda harflarni isloh qilish borasida harakatlar avj olgan bir paytda tatar tilshunoslari orasida unlilarni belgilashda turli qarashlar mavjud bo'lib, bularning hammasi singarmonizm bilan bog'liq edi. Tildagi yo'g'onlik va ingichkalikni so'z tarkibidagi unlilarga bog'liq deb talqin etgan tilshunoslar yo'g'on va ingichka juftlikdan iborat sakkiz unlini belgilab olganlar. Singarmonizm hodisasini ayrim unli (alif, hoyi havvaz) va asosan, undoshlarga bog'lab tushuntirgan O.Ibrohimov va uning tarafdorlari dastlab besh, keyinroq qisqa «i» ni kiritib, olti unlini qabul qildilar. Bu olti unliga aso-

[1] Фитрат. Танланган асарлар, IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – B.135.

[2] Tog'ayev, T. M. 2022. XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati. O'zbekiston: til va madaniyat 3: 6–23.

[3] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

[4] Eltazarov J.D. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand, 2017.

[5] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

slangan tatar yozuvi 1918-yilda o'rta imlo nomi bilan keng tarqalgan bo'lib, o'zbek tilshunoslari Fitrat va Elbeklar ham ana shu imloga asoslanib 1919-yil o'zbek yozuvi uchun olti unlini belgilab oldilar[1]».

Tashkilot **o'zbek adabiy tili**ni zamonaviy ko'rinishda shakllantirish va me'yorlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Jadid ziyolilari va «gurungchilar» xalq jonli tiliga yaqin bo'lgan adabiy til tarafdori edilar. Ular mumtoz «chig'atoy tili» an'analarini saqlagan holda xalq tilidagi so'z va shakllarni adabiy me'yorga olib kirishga harakat qildilar. Bu orqali o'zbek tilining xalqchil va milliy ruhdagi adabiy til bo'lishiga zamin yaratildi. Tashkilot a'zolarining bunday qarashlari zamonaviy o'zbek adabiy tilining rivojlashiga katta ta'sir ko'rsatdi. Fitrat faoliyatining yana bir muhim jihati u tilni tarixiy bilan bog'liq holda, lekin ko'r-ko'rona taqlidsiz tushungan. Jadidlar Alisher Navoiyni til ravnaqi yo'lidagi mayoq deb bilganlar. Manbada Navoiy milliy asarlarini jadidlar o'zlari uchun dasturulamal sifatida qabul qilingani va tilning rivojlanishini ro'yobga chiqarishda undan ilhomlangani alohida qayd etib o'tiladi. Bu hol «Chig'atoy gurungi»ning «chig'atoychilik»ni oddiy tarixiy romantizm merosi sifatida emas, balki adabiy til bilan uyg'unlashtirishni ko'rganini anglatadi.

«Chig'atoy gurungi» milliy **terminologiya**ni olish masalasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ular o'zbek tilini chet tillar ta'siridan imkon qadar himoya qilish, yangi ilmiy va ijtimoiy hodisalar uchun turkiy asosdagi istilohlarni topishga kirishdilar. Shu bilan birga, ular boshqa turkiy xalqlar til tajribalaridan ham unumli foydalandilar. Bu faoliyat o'zbek tilida ko'plab yangi terminlar va ilmiy atamalarning krib kelishiga sabab bo'ldi. Fitrat boshchiligidagi «Chig'atoy gurungi» adabiy tildagi barcha yot so'zlarni chiqarib tashlash va ularning o'rniga o'z tilimizdan istilohlar yasash tashabbusi bilan chiqdi. Bu qarash gurungning bosh tamoyillaridan biri edi: tilimizga kirib qolgan yot so'zlarning o'zbek muqobillarini topish, ilmiy istilohlarning turkcha (o'zbek) variantlarini yaratish yo'lida harakat qilish har bir o'zbek yozuvchisining burchi deb belgilandi. Ammo «Gurung»ning bunday keskin qarashi o'sha davrdagi ko'pchilik ziyolilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Behbudiy, Hoji Muin kabi ziyolilar «Gurung»ning istilohlarni yoppasiga turkiylashtirishiga qarshi chiqdilar. Miyon Buzruk tilga o'zlashgan barcha istilohlarni o'zbek tiliga o'girish masalasida gurungni tanqid qildi va «bu sohada «Chig'atoy gurungi»ning qilib ko'rgan tajribasi yetarli natija bermadi» deb baholadi. Unga ko'ra, gurungning eski, unutilgan so'zlarni tiklash yo'li (masalan, *atamachiliq, izm, sachim* kabi so'z yasash) kutilgan natijani bermadi, chunki jamiyat o'z ruhiga mos kelmagan so'zni rad etib tashlayveradi. Gurung qarashlariga davr ziyolilari tomonidan alternativ sifatida bir qator ilmiy asoslar ilgari surildi. Jumladan: arab va fors tilidan o'zlashib, tilga singib ketgan *ilm, muallim, falsafa, maarif, tibbiyot, tabiat* kabi so'zlarni o'z o'rnida saqlash qolish, istilohlarni faqat turkiy tillardan olish o'rniga, avvalo, xalq shevalariga murojaat qilish hamda internatsional istilohlarni (*proletar, komitet, kommuna* kabi) qabul qilish maqsadga muvofiq kabi.

1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyida asosiy ma'ruza qiluvchilarning ikkitasi (Fitrat va Botu) aynan «Chig'atoy gurungi» vakillari bo'lib, qurultoy qarorlari ham ular tomonidan ishlab chiqildi. Qurultoyda alifbo islohi bilan birga istiloh va imlo masalalari ham ko'rib chiqildi. Gurung tomonidan tuzilgan «Bitim yo'llari» asarida bir qator milliy atamalar kiritildi. Bu haqida bir necha ilmiy tadqiqotlarda izlanishlar amalga oshirilgan. Zamonaviy o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida iste'molda bo'lgan terminlarning (keyinchalik kirib kelganlardan tashqari) deyarli barchasi Fitrat ilmiy tafakkurining mahsulidir[2]. 1926-yil 25-noyabrdagi O'zbekiston Ilmiy Sho'rosining yig'ilishida istilohlarni milliylashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar «Gurung» g'oyalarini ma'lum darajada aks ettirib, turkiy shevalarni chet so'zlardan tozalash, unutilgan, tarix qarida qolib ketgan turkiy so'zlarni topib, adabiyotga kiritish, barcha turkiy xalqlar uchun yagona atama (istiloh) qabul qilish, va bu atamalar faqat turkiy so'zlardan olinishi lozimligi qayd etildi. «Chig'atoy gurungi»ning istiloh masalasidagi qarashi radikalligi bilan ajralib turadi. Ular arabcha, forscha va boshqa yot so'zlarni yoppasiga chiqarib, o'rniga milliy, turkiy istilohlar yaratish g'oyasini targ'ib qilgan va birmuncha maqsadiga erishgan. Biroq amaliyot bu yo'lning qiyinligini ko'rsatdi, jamiyat o'z ruhiga mos kelmagan sun'iy so'zlarni qabul qilmadi. Shu sababli keyinchalik gurung a'zolarining o'zlari ham bu fikrdan qisman qaytgan[3].

Tashkilot ma'rifiy va madaniy faoliyat bilan ham shug'ullandi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar ochish, darslik va o'quv qo'llanmalar, matbuotni rivojlantirish orqali xalq savodxonligini oshirishga harakat qildi. Bundan tashqari, xalq tilida yashayotgan folklor namunalarini yozib olish, tarixiy boylik sanaladigan qadimiy qo'lyozmalarni topish, to'plash va tadqiq qilish, bosmaxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi faoliat bilan mashg'ul bo'lishdi. Abdurauf Fitratning Istan-

[1] Элбекнинг тилшуносликка оид асарлари (тўпловчи: Ш.Бобомуродова). – Тошкент, 2001. – В.43.

[2] Baynazarov Z. Xusanova Z. Tinish belgilar tarixi va ularning yozma matnlarda qo'llanilish xususiyatlari / Turkologik tadqiqotlar. – Samarqand. 2025/2-son. turkologiya.samdu.uz

[3] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

buldagi faoliyati, «Yosh buxoroliklar» harakati bilan aloqalari ham «Chig'atoy gurungi»chilarining g'oyalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Fitrat jadidchilik, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini Turkistonga olib kirgan yuqori ziyolilardan biri bo'ldi.

«Chig'atoy gurungi»ning faoliyati turlicha baholandi. Imlo masalasida «*Chig'atay gurungi»ning katta bir xizmati bo'lsa, u ham imla masalasidir. Tarixiy imladan savtiy, sarfiy imlaga ko'chish bo'ldi*» deb e'tirof etildi [*Yangi alifbo*]. Alifbo islohidagi ilmiy izchillik va turkiy xalqlar tajribasiga murojaati ilmiy yondashuv sifatida yuqori baholandi. Milliy fonetika ilmining shakllanishiga asos solinishi ham tashkilotning xizmatlaridan biridir. «Gurung» faoliyatini yoqlamagan, ijobiy baholamagan tomonlar ham mavjud va buni tabiiy hol sifatida ko'rish mumkin. Chunki har bir harakatning salbiy bahosi ham mavjud. «Gurung» islohatlariga qo'shilmaganlar fikricha, arab va fors so'zlarini yoppasiga chiqarish taklifi amalda bajarib bo'lmas harakatdir, unutilgan eski so'zlarni sun'iy ravishda qayta tiklash jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi, deb qaradi. Bundan tashqari, «Gurung»chilar adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashish tamoyilini e'lon qilgan holda, amalda bu bir necha lug'at so'zlarini olish bilan cheklandi, xolos. Amalda kichik bir harakatdan nariga o'ta olmadi. Muxolif fikrlarga qo'shilishdan boshqa chorasi qolmadi.

Sobiq Sovet hokimiyati mustahkamlanib olgach, «Gurung» faoliyati siyosiy jihatdan qoralandi. Ularning milliy til, alifbo, adabiy tilning sofligi uchun olib borgan harakatlari «*eskilik sarqiti*» sifatida baholanib, «panturkizm» va «millatchilik» tamg'asi bosildi. Biroq mustaqillikdan so'ng gurungning milliy til va alifbo masalasida katta xizmatlar qilganligi e'tirof etildi.

Xulosa o'rnida. «Gurung» 1918-yil oxirlarida Toshkentda Abdurauf Fitrat rahbarligida tashkil topdi. 1919-yil boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan bu madaniy-ma'rifiy va adabiy-badiiy tashkilot jadidchilik harakatining so'l oqimini birlashtirdi. Tashkilot tarkibida Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Botu, Shorasul Zunnun, Oltoy kabi yirik ziyolilar faoliyat yuritdi. Ularning imlo masalalari bilan maxsus shug'ullanuvchi alohida bo'limi – «Imlo to'dasi' tuzilgani tashkilotning ishiga naqadar tizimli yondashilganini ko'rsatadi. Gurungning bosh maqsadi yangi o'zbek milliy adabiyoti va adabiy tilini yaratish, ilm-madaniyatini rivojlantirishdan iborat edi. «Gurung» a'zolari yangi adabiyot va adabiy tilni chig'atoy adabiyotining chin vorisi sifatida ko'rib, uni Navoiy davridagidek yuksak mavqeyiga qaytarishni va boshqa turkiy tillar uchun ham namuna bo'lishini istadi. Fitratning o'z so'zlari bilan aytganda, «Chig'atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o'rinni tutqondur». «Gurung» a'zolari o'ziga xos millatparvarlik pozitsiyasida turib, faqat o'zbek millati manfaatidan kelib chiqib ish ko'rdi va 1921-yilgi Birinchi o'lka qurultoyiga «Turkistonda bo'lgan turk urug'laridan yolg'iz o'zbeklarni» chaqirdi. Ularning eng muhim va davomli hissasi til va yozuv islohotida namoyon bo'ldi. Tashkilot arab yozuvini o'zbek tiliga moslashtirib, harflar sonini 150 dan 23 taga qisqartirdi, o'zbek tilidagi 6 unli tovush uchun maxsus belgilar kiritdi, qalinlik-ingichkalik (singarmonizm) qoidasini imlo asosiga aylantirdi. 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan nashr etilgan «Bitim yo'llari» asari o'zbek tilshunosligida milliy grammatika va fonetikaning ilk ilmiy asosi bo'lib qoldi. 1921-yilgi Birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyida asosiy ma'ruzani gurung vakillari (Fitrat va Botu) qildi, qurultoy qarorlari ham ular tomonidan ishlab chiqildi. Ular «Eski imloni isloh etishga bel bog'ladilar. O'zlari isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e'lon qilib, targ'ib qila boshladilar. Ikki oylik o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o'rgata boshladilar.

«Gurung» faoliyatining muhim qismi madaniy merosni to'plash, o'rganish va ommalashtirish hamda matbuot orqali g'oyalarni yoyishdan iborat edi. «Qizil O'zbekiston», «Qizil bayroq», «Sharq haqiqati», «Maorif va o'qitg'uchi» kabi nashrlar g'oyaviy platforma vazifasini bajargan. Ko'plab yosh ziyolilar va o'qituvchilar «Gurung» imlosini qo'llab-quvvatladilar. Barcha yot so'zlarni chiqarib, o'z tilimizdan istilohlar yasash tashabbusi bilan chiqdi. Bu fikr Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Behbudiy, Hoji Muin kabi ziyolilar tomonidan tanqid qilindi. Ammo «chig'atoychilar»ning bu boradagi faoliyati o'zbek ilmiy terminologiyasini shakllantirish yo'lida birinchi tizimli urinish sifatida tarixda o'z o'rnini egalladi. Tashkilot faoliyati o'sha davr va keyingi davrda turlicha baholandi. Bir tomondan, gurungning imlo masalasidagi xizmati hatto raqiblari tomonidan ham tan olindi. Imlo sohasidagi eng katta xizmat tarixiy imlodan tovush-sarf imloga o'tish bo'ldi, deb e'tirof etildi. Boshqa tomondan, arab va fors so'zlarini yoppasiga chiqarib, o'rniga unutilgan turkiy so'zlarni kiritish g'oyasi amalda o'zini oqlamadi, jamiyat sun'iy tarzda tiklangan so'zlarni qabul qilmadi. Sovet hokimiyati mustahkamlangach esa, gurung faoliyati «*panturkizm*» va «*burjua millatchiligi*» tamg'asi ostida qoralandi, Fitrat va boshqa a'zolar qatag'onga uchradi.

«Chig'atoy gurungi» o'zbek milliy tilshunosligini, milliy fonetika va grammatika ilmini, imlo qoidalarini shakllantirgan, o'zbek yozuvini arab alifbosidan lotin yozuviga o'tkazish harakatida faol ishtirok etgan, o'zbek leksikografiyasi va terminologiyasiga tamal toshini qo'ygan tashkilotdir. Uning faoliyati XX asr boshlarida o'zbek ziyolilari millat taqdiri uchun olib borgan fidokorona kurashning eng yorqin namunasidir.

Rezyume. O'tgan asrning birinchi choragi o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan davr sifatida kechmishning zarhal sahifasi sanaladi. Turli ko'rinishdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqiloblar samarasi o'laroq til, yozuv va imlo borasida juda ko'p ishlar hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada bir necha loyihalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu ishlarning barchasi hayotga tatbiq etilmagan bo'lsa-da, ularning ahamiyati hozirgi davrda ham o'z kuchini saqlab qolmoqda. Jumladan, yozuv va imlo borasidagi ishlar. Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining tilshunoslik yo'nalishida alohida o'rin tutgan «Chig'atoy gurungi»ning o'zbek milliy tilshunosligidagi o'rni yoritiladi. Tarixiy manbalar asosidagi faoliyatning bosh yo'nalishlari – alifboni islohloh qilish, imlo qoidalarini milliylashtirish, singarmonizmga munosabat, terminologiya va xalq jonli nutqiga tayangan adabiy me'yorni ishlab chiqishda muammolarni tahlil qilish. «Chag'atoy gurungi» atrofida kelgan munozaralar, unga qarshi bildirilgan tanqid hamda keyingi harakatlar baholangan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu «Gurung» nafaqat milliy bir uyushma, balki milliy tilni ilmiy asosda qayta qurishga uringan ma'rifiy-intellektual harakat sifatida ham muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Resume. The first quarter of the twentieth century left an indelible mark on Uzbek history, during which significant scholarly work was carried out in the fields of language, script, and orthography. This article examines the role of «Chagatay Gurung» – a prominent organization within the linguistic dimension of the early twentieth-century Jadidist movement – in the development of Uzbek national linguistics. Based on historical sources, the article analyzes its main areas of activity: alphabet reform, nationalization of orthographic norms, attitudes toward vowel harmony, terminology development, and the establishment of literary norms based on living spoken language. The debates surrounding the organization, criticism directed against it, and subsequent developments are also assessed. The study concludes that «Chagatay Gurung» was not merely a national association, but an enlightenment and intellectual movement that sought to reconstruct the national language on a scientific basis.

Резюме. Первая четверть прошлого века считается золотой страницей прошлого как период, оставивший неизгладимый след в истории узбекского народа. В результате различных социально-политических и культурных революций было проведено множество работ и научных исследований в области языка, письменности и орфографии. В результате было разработано несколько проектов и рекомендаций. Хотя все эти работы не были внедрены в жизнь, их значение сохраняет свою силу и в настоящее время. В частности, работы по письму и орфографии. В данной статье рассматривается роль «Чагатайской беседы» в узбекском национальном языкознании, которая заняла особое место в лингвистическом направлении джадидского движения начала XX века. Основные направления деятельности на основе исторических источников – реформирование алфавита, национализация орфографических правил, отношение к сингармонизму, анализ проблем при разработке литературной нормы, основанной на терминологии и живой речи народа. Оценены дискуссии, возникшие вокруг «Чагатайской беседы» критика, высказанная против него, и последующие действия. Данные, приведенные в источниках, показывают, что «Гурунг» имеет важное историческое значение не только как национальное объединение, но и как просветительско-интеллектуальное движение, пытавшееся перестроить национальный язык на научной основе.